

SHUKUR XOLMIRZAYEV HIKOYALARIDA BADIY DETALNING POETIK VA
ESTETIK FUNKSIYASI

Alimova Mohidil

alimova.mohidil2@mail.com +998944629587

Surxondaryo Viloyati Termiz Tuman 1-Umumta'lim Maktabi Ona Tili Va Adabiyot Fani
O'qituvchisi

Ushbu tadqiqot ishida adib Shukur Xolmirzayev hikoyalari kompozitsiyasida badiiy detallar, jumladan uning peyzaj, narsa-predmet, interyer kabi turlaridan keng foydalanganiva asar tuzilishining o'ziga xosligini ta'minlagani ilmiy tahlil etiladi. Yozuvchi ijodiy kredosi hisoblangan tasvir ob'ektivligini yuzaga chiqarishda qahramon holati uning ichki ruhiy dunyosi, tasvirning aniq va ishonchliligi, muallifning badiiy maqsadini yuzaga chiqarishda badiiy detallar muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar:kompozitsiya,badiiy detal, obraz, tabiat, peyzaj detal,predmet detal,ekspozitsiya,interyer detal,badiiy konstepsiya

АННОТАЦИЯ

В данной статье будет проведен научный анализ рассказов Адиба Шукура Холмирзаева, в которых широко использованы художественные детали, в том числе такие его виды, как пейзаж, вещь-предмет, интерьер, и т.д., которые обеспечили оригинальность структуры произведения. В выводе на поверхность объективности образа, творческим кредо которого является писатель, состояние героя, его внутренний духовный мир, ясность и достоверность образа, художественная детальность работы приобретают важное значение при выводе на поверхность художественного замысла детали становятся важными. Ключевые слова: композиция, художественная деталь, образ, природа, пейзаж, предметная деталь, экспозиция, интерьер, деталь, художественная концепция

ANNOTATSIYA

In this article, the writer Thanks the Xolmirzaev kompozitsiya story of artistic details, including its landscape, things-objects, interiors, such as the widely used cultivars havei made that provide specific and the gameis scientific analysis. The writer is the occurrence of internal mental image out of his hero status kredosi creative ob'ektivligi the world, and the reliability of the image is clear, the author details in the likelihood of out your artistic artistic goals] which plays an important role.

Keywords:kompozitsiya, artistic details, images, nature, landscape details,item details, exposition, interior details, artistic konstepsiya

Shukur Xolmirzayev adabiyotning turli janrlarida rang-barang hikoyalari, publitsistik maqolalari, tarixiy esselari, realistik qissalari-yu ajoyib romanlari bilan hozirgi davr adabiyotida munosib o'rin egallagan yirik yozuvchilarimizdandir. Ayniqsa, adib Abdulla Qahhordan keyin o'zbek nasrini hikoya janridagi asarlar bilan boyitishga ulkan hissa qo'shdi. Shukur Xolmirzayevning adabiyotdagi o'rni salobatli va jozibador hikoyalari bilan belgilanadi. Adib o'z hikoyalarida Boysun manzaralarini, Surxonning viqori ruhini olib kirdi. Yozuvchining "Qush tili" hikoyasida havodan turli ko'katlarning hidi kelishi, ro'paradagi kattabog', osmon tiniq huddi ko'zgu kabi, atrofda daraxtlar tig'iz ekilgan, teraklar bo'yi osmonga yetgulik, daraxt shoxlari egilgan holda

chipor qushlarga hayron bo‘lib qaraydi. Bu hikoyada mayna qushining yarador bo‘lishi uni Jahongir isimli bola qutqarib qolishi, insonlarning tabiatni gultoji ekanligi, lekin ular tabiatda mavjud bo‘lgan jonzotlarga shafqatsiz munosabatda bo‘lmasligi, hatto daraxtlar kesganda joni og‘rir ekan, daraxt suvsiz qolsa, ingragan ovoz chiqarkan.

Qamariddinning: “ Bilasanmi tabiatni nima uchun yaxshi ko‘raman? Bunda bepoyon bir mangulik bor. Mana juda xafasan, -deylik. Tarixda yuz bergan biror xatolikdan qalbing yaralandi. Yoki inson sababsiz xursand,- deylik. Har qanday holatda tabiatning qo‘yniga chiq, birdan xotirjam bo‘lib qolasan. Dunyoning asl haqiqati mana shunda,”- degan so‘zlarining o‘zida qahramon qalbida ezgulik nish otganini yaqqol sezish mumkin.

Shukur Xolmirzayev dastlabki ijodiy mahsullari bilan kitobxonlar, xususan, taniqli adabiyotshunoslar nazariga tushgan edi. Uning ilk qissasi - “To‘lqinlar”ni “Sharq yulduzi” jurnalida o‘qigan atoqli so‘z san’atkori Abdulla Qahhor yosh ijodkor qalamkashning noyob iste’dodini birinchilardan bo‘lib sezgan, unga: “Ijodiy ishlaringiz baroridan kelsin”, - deb xat yozgan edi.

Adibning “Boychechak ochildi” hikoyasida Qo‘ng‘irot domlaning shahar hayotidan ko‘ngli siqilib, o‘z ona qishlog‘iga bahor faslida borishi, unda birgina bahorning ilk guli boychechakni ko‘rib, bolalarcha tog‘ bag‘ridan uni izlashi, qalbida bahor kabi jonlanish, yasharish boshlangani nihoyatda ta’sirchan tasvirlanadi. Aynan boychechak tasvirining berilishi predmet detalining yaqqol namunasi hisoblanadi desak, adashmagan bo‘lamiz.

Bu adib ijodiy-badiiy uslubini o‘sha vaqtlardayoq taniqli yozuvchi Odil Yoqubov shunday tavsiflagan: “Shukur Xolmirzayev tasvirni juda quyuq detallashtiradi, o‘zi go‘yo aralashmaydi. Xuddi rassomdek go‘yo so‘z bilan emas, bo‘yoqlar bilan ish ko‘radi... Siz o‘qimaysiz, go‘yo kartina tomosha qilasiz”.

Badiiy adabiyot g‘oyatda murakkab jaryon. U ijodiy metod, tipiklik, ijtimoiylik kabi katta muammolardan tortib to asardagi nuqta, verguligacha bo‘lgan mayda narsalarni o‘z ichiga oladi. Chinakam san’atkor uchun badiiy ijodkor uchun badiiy ijodda ikkinchi darajali degan narsaning o‘zi yo‘q. Chinakam san’at asarida hamma narsa o‘z joyida, xatolardan holi bo‘lmog‘i lozim. Mohir yozuvchi asarning eng kichik qismchalari va hatto ayrim so‘zlar ustida soatlab ishlaganliklari ma’lum. Abdulla Qahhor o‘z hikoyalari ustida, uning har bir so‘zi ustida huddi chegarada ayoq-u qahratonda miltiqni berib qo‘ymasligi shart bo‘lgan chegarachi singari kurashadi. Zotan, shunday yaratilgan asarlarga adabiyot maydonida sharaf libosini kiyadi.

Badiiy asardagi kichik qismchalarga, ikir-chikirlarga detal va tafsilot ham kiradi. Ma’lumki, adabiyot yoki san’at asarlari jamiyat hayotini ifodalab, ma’lum bir estetik tarbiyaviy vazifani bajaradi, shu bilan birga keyingi avlodlar uchun ham ma’naviy boylik sifatida xizmat qiladi. Aytmoqchi bo‘lganim, yozuchi ijodida yaratilgan asarlar bugun xuddi ana shunday vazifani o‘tamoqda. Adibning asarlarini o‘qir ekanmiz, unda soddalik, samimiylik, tabiiylik va ayni paytda milliylikning ufurib turganiga guvoh bo‘lamiz hamon qalbida ezgulik nish otganini yaqqol sezish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Quronov D. “Adabiyotshunoslikka kirish”. –Toshkent:Meros, 2004. –B 76-77.
2. Solijonov Y. “Detallar tilga kirganda”-“O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi, 2007-yil, No5.
3. Xolmirzayev Sh. Saylanma: III. –Toshkent: “Sharq”, 2005. –B.116.
4. Xolmirzayev SH. Tanlangan asarlar: Hikoyalar. II J-T: “Sharq”, 2020. –. B.21